

"Katta Qirqqiz qal'a"dan yangi arxeologik yodgorlik topildi

2021-yil may oyida Janubiy Orolbo'yi O'zbekiston-Rossiya kompleks arxeologik ekspeditsiyasi arxeologik ishlarining 2-mavsumi ish boshladi. Ekspeditsiya ishlarida O'zR FA Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar instituti hamda Rossiya Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti, Rossiya Fanlar akademiyasi N.N.Mikluxo-Maklay nomidagi etnologiya va antropologiya instituti, Rossiya Sharq xalqlari san'ati muzeyi ilmiy xodimlari ishtirok etmoqda.

Ellikqal'a tumani hududida joylashgan "Katta Qirqqiz qal'a" yodgorligida amalga oshirilgan arxeologik qazish ishlari mazkur mintaqada qadim davrlarda yashagan xalqlar tarixi to'g'risida yangi ma'lumotlarga asos bo'ladi. Arxeolog-olimlarning ta'kidlashicha, mazkur yodgorlik miloddan avvalgi IV-III asrlarda qo'rilgan bo'lib, milodiy VII-VIII asrlargacha gullab-yashnagan.





Qal'aning g'arbiy tomonida tashqi kompleks – yirik monumental bino mavjud bo'lib, unda arxeologik qazish davomida antik keramika namunalari, maishiy buyumlar, eng asosiysi, butun kamalak ranglarini o'zida jamlagan devoriy rangli tasvirlar namunalari topildi. Hech qanday mubolag'asiz aytish mumkinki, mazkur obyekt noyob arxeologik yodgorlik hisoblanadi. Bunday tashqari, qal'a hududidan tangalar ham topildi va ularni restavratorlar o'rghanmoqda.